



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 4 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI .....	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI .....	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR .....	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) .....	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI .....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy) .....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA) .....	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI .....	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR .....	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI .....	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI .....	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....	93-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) .....	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI .....	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....	165-169

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI .....	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI .....	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI .....	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT .....	224-231
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI .....	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA .....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI .....	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION .....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS .....	282-285

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION .....	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI" .....	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI .....	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI .....	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI .....	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR .....	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI .....	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI .....	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR" .....	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI .....	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI .....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....	458-463
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR .....	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI .....	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI .....	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....	497-501

**Received:** 16 March 2025

**Accepted:** 5 April 2025

**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

## **DEVELOPMENT HISTORY AND FORMATION OF DEMOGRAPHY IN UZBEKISTAN**

**Salaev Fazliddin Shamsiddin ugli**

Tashkent University of Architecture and Civil engineering  
assistant, department of “Uzbek language and literature”

**Abstract.** This article discusses the history of the development of the field of demography in our country and the stages of its formation. Scientists, devotees of science, historians and specialists who made a great contribution to the development of the field of demography in Uzbekistan and the works written by them are discussed in detail. In addition, the stages of demography paralysis in Uzbekistan were discussed.

**Keywords:** population census, urbanization, migration, demographic forecast, demographic equality, historical demography, ethnodemography.

## **O'ZBEKİSTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI**

**Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti  
E-mail: [salayevfazliddin7@gmail.com](mailto:salayevfazliddin7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda demografiya sohasining rivojlanish tarixi va shakllanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. O'zbekistonda demografiya sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar, fan fidoiylari, tarixchilar hamda mutaxassislar va ular yozgan asarlar haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Undan tashqari O'zbekistonda demografiyaning shakllanish bosqichlari haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi ro'yxati, urbanizatsiya, migratsiya, demografik prognoz, demografik tenglik, tarixiy demografiya, etnodemografiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N03>

**Kirish.** Hozirgi zamонавиy dunyoda O'zbekiston o'z o'rнiga ega bo'lib, jahon hamjamiyatida alohida o'rин egallab bormoqda. XX - XXI asrlarda dunyo shu qadar tez rivojlandiki, bundan hech qaysi soha ajralib qolmadidi. XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin, o'z taraqqiyot yo'liga o'tgan ko'pgina mamlakatlar singari O'zbekiston ham o'z taraqqiyot yo'lini tanladi. Bu taraqqiyot asnosida yurtimizda yuz bergen ijobiy o'zgarishlardan hech qaysi bir soha alohida ajralib qolmadidi.

O'zbekiston tarixini haqqoniy, asosli tarzda yoritish masalasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1998-yilda bir guruh tarixchi olimlar bilan o'tkazgan muhokamasida so'ng "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari e'lon qilindi. Ayniqsa bu asardagi "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi" [1; B.5.] iborasi alohida e'tiborga muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda ham yaqin 20-30 yil ichida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy, iqtisodiy hayotidagi sifat o'zgarishlariga hamohang tarzda tarix fanida yangicha qarashlar va nazariyalar, yangicha ruh va mazmundagi ilmiy tadqiqotlar uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratildi. Bu borada Respublika rahbariyatining olib borayotgan siyosati hamda o'tkazilayotgan islohotlar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida o'z aksini topadi: "Oldimizga qo'yilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, vatanimizning qadimiyligi va boy tarixini o'rghanish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" [2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mavzuga oid adabiyotlar tahlilini quyidagi ikki guruhga bo'lsak maqsadga muvofiqdir:

1.Rossiya imperiyasi va Sovet davrida nashr qilingan adabiyotlar hamda aholi ro'yxati o'tkazilgan yillardagi davriy ma'lumotlar;

2.Mustaqillik yillarda yaratilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotlar.

**Birinchi guruhga** sovet davrida yaratilgan va chop etilgan asarlar kiritilgan bo'lib, bu davrda demografiya sohasida respublikamizda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu ilmiy tadqiqotlar nafaqat demograflar tomonidan balki, tarixchilar, etnograflar, geograflar va iqtisodchilar tomonidan olib borilganligi ham ahamiyatlidir. Masalan, M.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, O.B.Otamirzayev, A.Soliyev, E.S.To'xtayev, E.Ahmedov, H.Fayziyev, R.Ubaydullayeva, G.Asanov va boshqalarning asarlarini alohida qayd etish mumkin. Jumladan, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini bo'yicha muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan O.B.Otamirzayevning asarlarida O'zbekistonda demografiya va urbanizatsiya jarayonlarining holati, uning taraqqiy etishi bilan bog'liq demografik va geografik manbalar tahlil etilgan [3]. M.Qoraxonov ham o'zining amaliy va nazariy tadqiqotlari bilan mamlakatimizning demografik taraqqiyoti masalalarini yoritishga o'z hissasini qo'shgan [4]. Respublikamizdagi aholishunoslik va demografiya sohasidagi ilmiy izlanishlarning alohida maktabini yaratishga xizmat qilgan 1972-yilda O'zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakultetida tashkil etilgan aholishunoslik ilmiy tadqiqot laboratoriysi faoliyati xizmatlari katta. Demografiya yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borgan E.Ahmedov va N.Fayziyevlarning "O'zbekiston aholisi" monografiyasi diqqatga sazovordir [5].

O'zbekistonda demografik jarayonlarining iqtisodiy taraqqiyoti va aholining ijtimoiy turmush masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan I.Mullajanovning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [6; B.278.]. O'z tadqiqotlari natijasida I.Mullajonov respublika shaharlarining ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy ahvoli va aholi migratsiyasi bo'yicha uch muhim jihatni ko'rsatib o'tadi. Bular: birinchidan, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda ro'y bergan migratsiya natijasida mehnat resurslari hududiy miqyosda qayta taqsimlanadi. Ikkinchidan, shaxsiy manfaatdorlik prinsipi asosida aholida migratsiyaga ixtiyoriy ravishda moyillik paydo bo'ladi va bunda migratsiya rejali tarzda yoki reja asosida amalga oshirilsa, jamiyat manfaatlariga katta foyda keltiradi. Uchinchidan, migratsiya natijasida turli millat vakillari o'zaro yaqinlashadi, ko'plab aholi punktlari paydo bo'ladi [7; B.31.].

**Ikkinci guruh** adabiyotlarga mustaqillik yillardagi yaratilgan adabiyotlar, maqolalar, ilmiy tadqiqot ishlari kiradi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilligida demografik jarayonlari bilan bog'liq muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy asarlar yaratildi. Shu o'rinda etnik tarix masalasiga ham alohida

e'tibor qaratildi. Etnodemografiyaga doir ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Mamlakatimiz aholisining milliy tarkibi masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar va to'plamlar paydo bo'ldi.

Mustaqillikkacha etnodemografiya sohasi bilan turli soha vakillari xususan, iqtisodchilar, sotsiologlar, geograflar shug'ullanib kelishgan, istiqlolimizdan so'ng ushbu sohada tarixchi va etnograflar alohida tadqiq eta boshlashdi.

Bu borada tarixshunoslik yo'nalishida M.Bo'riyeva, D.Bobojonova, D.A.Alimova, Sh.G'afforov va boshqa olimlar fandagi eski uslubiyatdan voz kechib, milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, milliy munosabatlar mushtarakligi, aholi demografik jarayonlarining turli davrlarini o'z ichiga olgan tadqiqotlar ustida ishlamoqdalar. R.X.Murtazayeva, L.Maksakovabni olimalarning tadqiqotlari natijasida yaratgan asarlari ham alohida ahamiyatga ega. Shu o'rinda O.Otamirzayev, V.Gentshke, R.X.Murtazayevalarning monografiyasida demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari, O'zbekistonda 1959-1970-yillardagi aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sish masalalari va uning urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri masalalari tahlil qilingan[8].

Ilmiy maqolada tarixiy tadqiqotlar olib borishning davriylik, ilmiy-tanqidiy tahlil, tarixiylik va ilmiylik hamda izchillik uslublaridan foydalanildi.

**Muhokama.** O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega. Respublikada demografik bilimlar juda qadimdan mavjud bo'lgan. Bular haqida qadimgi qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar va ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin, mamlakatda maqsadli demografik tadqiqotlarni o'tkazish 1960-yillardan boshlangan.

Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf olim Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakatning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga, M.Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarini ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirilgan. O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga Is'haq Rashidovich Mullajonov, Xojiakbar Salimovich Salimov, Ra'no Axatovna Ubaydullayeva, Ozod Bobomirzayevich Ota-Mirzayev, Erkin Agzamovich Axmedov, Lyudmila Petrovna Maksakova, Mamlakat Rahmonovna Bo'riyeva, Abduhakim Abduhamidovich Qayumov, Abdusami Soliyevich Soliyev, Ravza Bayanova Murtazina, Zulkumor Nazarovna Tojiyevalar ham katta hissa qo'shgan[9; B.21-22.].

O'zbekistondagi demografik jarayonlarni o'rganishda o'tmishda qator davrlar mavjudligi alohida ahamiyatga molik [10; B.37-38.]:

Dastlabki davr – 1865-1917-yillarni o'z ichiga olib, mazkur davr Turkistonda demografik tadqiqotlarning Rossiya imperiyasi istilosи va mustamlakachilik davrini o'z ichiga oladi. Bu yillar davomida mintaqaga aholisining tabiiy o'sishi kuzatilib, u tinch hayot tarzini o'rnatilishi bilan bog'liq. Mazkur davr mobaynida demografik tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Mustamlakachilik vaqtida migratsion jarayonlarning xususiyatlaridan biri, Turkistonga Rossiya Imperiyasi hududlaridan aholining ko'chib kelishi sezilarli darajada ko'paydi. O'lkada tinchlik va osoyishtalikni o'rnatilishiga bir qancha omillar ta'sirini o'tkazgan bo'lib ya'ni hali donli ekinlardan olinadigan hosildorlikning pastligi, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi, ocharchiliklar, yuqumli kasalliklar natijasidagi epidemiyalar aholi soni o'sishini chekllovchi omillar va shu o'xshash kamchililar asosiy sabablardan bo'lgan. Bu borada tibbiy xizmatning deyarli bo'lmasisligi, bolalar o'limining ko'pligi

ham aholi sonini tabiiy o'sishini cheklovchi omillar bo'lgan. Bu davr mobaynida umumiy jihatdan demografik vaziyat ancha qoloq bo'lgan.

Ikkinchchi davr – 1917-1924-yillar oralig'i hisoblanib, ushbu davr Rossiya imperiyasi tugatilishidan to Markaziy Osiyoda milliy hududiy chegaralanishining o'tkazilishi va uning yakuniga qadar davom etadi. Turkiston ASSRning 1918-yilda tashkil etilishi natijasida, aholi ro'yxatlarini tuzish ishlari 1920-yildan boshlanadi. Bu boradagi ishlar birinchi navbatda shaharlardan boshlanib, keyin esa qishloqlarda davom ettirilib, fuqarolik holatini qayd etib, yozib borish bo'limlari tashkil etiladi. Bu davr mobaynida O'zbekistonga boshqa hududlardan aholining ko'chib kelishini kuzatsak, keyingi bosqichda ko'chib kelayotganlar bilan bir qatorda ko'chib ketayotganlar ham qayd qilinganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur davrda ham tug'ilishlar soni keskin pasayib, bu jarayon 1925-yilgacha davom etishini ko'ramiz. Turkiston ASSR da aholini ro'yxatga olish 1920-1923-yillarda boshlanadi.

Uchinchi davr – 1924-1940-yillar oralig'i aks etgan. O'zbekistonda bu bosqich davomida sanoatlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarini malga oshirish va rivojlantirish ancha kuchaydi. Tezkor sur'atlarda ayollarni ijtimoiy hayotda mehnat jarayoniga jalb etish ortib bordi va jamiyatdagi o'rni biroz yaxshilandi. Mazkur bosqichning eng ahamiyatli jihatlaridan biri bu – O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanishi natijasida milliy davlatlarning vujudga kelishi bo'ldi. 1926- va 1939-yillarda mintaqalardagi aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirildi. Ushbu yillar oralig'ida ahamiyatli jihat shuki, tug'ilganlar soni ko'p bo'lmasa-da, lekin vafot etganlar soni anchagina kamaya boshlagan.

To'rtinchchi davr – 1941-1945-yillar. Ushbu davr mobaynida demografik tenglikning nisbati salbiy tarafga o'zgara boshladi. Tug'ilishlar soni kamayib ketib, o'limlar soni esa sezilarli darajada tez sur'atda yilma-yil oshib bordi. Jahon urushining dastlabki davrida nemislar tomonidan egallab olingan hududlar aholisining O'rta Osiyo mamlakatlariga vaqtinchalik ko'chirib keltirilishi amalga oshirila boshlanadi. Asosiy ishchi kuchi hisoblangan erkaklarning urushga safarbar qilinishi natijasida sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining nisbatan kamayishiga olib keldi. Aholining iste'mol qilayotgan mahsulotlarning urushgacha bo'lgan holatining 43% ni, 1940-yilda shaxsiy iste'mol 42% ni tashkil etgan bo'lsa, 1942-yilga 38% ga tushib ketdi. Mazkur jarayonlar O'zbekistonning demografik holatiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmadi. Ushbu davrga kelib tug'ilishlar soni keskin pasayib ketdi. Buning asosiy sababi, mintaqadan ko'plab erkaklarni frontga ya'ni urushga jo'nab ketishi bo'lgan. Urush yillari davomida urushga safarbar etilgan erkaklar o'limining ko'payib, ayollar sonining esa erkaklarga nisbatan ortib ketishiga olib kelgan. Shu sabab tug'ilishlar soni avvalgi urushdan oldingi davrga nisbatan ancha past bo'lgan.

Beshinchchi davr – 1945-1989-yillar. Bu bosqich davomida tug'ilishlar soni asta sekin ko'payib borib, o'limlar soni sezilarli darajada kamayib bordi. Ammo bolalar o'limi yuqoriligidcha qolaverdi. Vaziyat 1975-yildan ijobiy tarafga o'zgara boshlab, respublikada bolalar o'limining asta-sekinlik bilan kamaya boshlaganligini ko'rish mumkin.

Boshqa fanlar singari demografiya ham bir nechta tarmoqlarga bo'linadi. Bu tarmoqlarga biz iqtisodiy demografiya, matematik demografiya, tarixiy demografiya, etnik demografiya hamda sotsial demografiya kabilarni kiritamiz. Mazkur tarmoqlarning har biri alohida yo'nalishda ish olib boradi. Xususan, tarixiy demografiyaga to'xtalsak.

Tarixiy demografiya – xalqlar va mamlakatlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o'rganadi.

Demografik jarayonlarni o'rganishda ushbu jarayonlarni aks ettiruvchi maxsus ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar – demografik ma'lumotlar deb atalib, ularga aholi va demografik jarayonlarga oid nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalari kiradi.

Demografik ma'lumotlar hududlar (dunyo, qit'a, alohida davlat, shahar, qishloq, tuman), jamiyat taraqqiyotidagi turli tarixiy davrlar, aholining turli ijtimoiy guruhlari (millatlar, ishchilar, xizmatchilar, tadbirkorlar, ....) uchun alohida to'planadi.

Dedmografik jarayonlarni o'rganishda asosan quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Ularga fuqarolik holatini qayd etuvchi (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) maxsus hujjatlar, aholi ro'yxati ma'lumotlari, demografik tadqiqot natijalari, ilmiy manbalar, turli adabiyotlar va qonuniy hujjatlarni kiritish mumkin [11; B.16.].

**Natijalar.** Yurtimizda qadimdan o'z sohasining yetuk olimlari va mutafakkirlari yetishib chiqqanligi hech kimga sir emas.

Mamlakatimizda azaldan ko'p millatli aholi yashab kelgan. Bu aholining bir makonda shakllanishi va uzoq davrlardan buyon tinch-totuv yashab kelayotganliklari e'tiborga molikdir. Respublikamizda 1991-yildan buyon amalga oshirilgan siyosat xalqimiz manfaatini o'ylab amalga oshirilganligi sir emas. Mamlakatimizning har bir fuqarosi davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni atroficha anglab, davlatimiz rivoji uchun o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi tez o'sayotgan davlatlar sirasiga kirishi hammamizga ma'lum. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan 1991-yilda mamlakatimiz aholisi 20 million atrofida edi. Hozirgi kunga kelib respublikamiz aholisi 35 milliondan oshib ketdi. Shundan 17 milliondan ko'proq qismi shahar joylarda, yana shuncha qismi qishloq joylarda istiqomat qilmoqda.

**Xulosa.** Markaziy Osiyodagi qolaversa, butun Yevrosiyodagi demografik jarayonlar tarixi uzoq davr mobaynida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Shu o'rinda mamlakatimiz qadimdan nafaqat O'rta Osiyoda balki, butun Yevrosiyoda tarixiy, demografik va etnik jarayonlarni boshidan o'tkazganligi bilan ajralib turgan. Bu borada mamlakatimiz aholisini mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli darajada tez o'sayotganligini hisobga olib, O'zbekistondagi demografik holat va uning istiqbollarini tadqiq etish hamda aholining milliy tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asrda demografiya fanining shakllanishi, aholi o'lim sonining kamayishi, nikoh soni va tug'ilishing ko'payishi, migratsiya jarayonlari asosida aholi sonining ortishi, ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha tadqiqotlarning ko'payishiga va yuksalishiga imkon berdi.

XX asrga kelib, etnodemografiyaning shakllanishi natijasida belgilangan mintaqalar aholisining etnik tarkibini o'rganish alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Shu davrda etnodemografiya tadqiqot yo'naliishida ikkita asosiy yo'naliish alohida rivojlandi. Birinchisi, etnodemografiyaning tadqiqot maydonini aniqlash bo'lsa, keyingisi etnodemografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar doirasining kengayishi bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, etnodemografik jarayonlarni tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanishi, shuni inobatga olgan holda mazkur sohaga oid tadqiqotlarni, amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamin kengaytirish ilm ahlining oldida turgan vazifa hisoblanadi. Demografiya va etnik tarix masalalari bir-biriga chambarchas bog'liq sohalar ekanligi hisobga olingan holda, mamlakatimizda bugungi kunda mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilayotgani quvonarli holdir. Demografiya va etnodemografiyaga oid yaratilgan

asarlar, tadqiqot ishlari, ekspeditsiyalarni o'rganib ularni tadqiq etish har bir soha vakillarining vazifasidir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т.: 1998. В. 5.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 28 декабрь.
3. Ата-Мирзаев О.Б. К особенностям развития городского расселения Ферганской долины // Проблемы народонаселения. –Москва:Изд.МГУ, 1970; Ата-Мирзаев О.Б.Салиев А.С.Региональные особенности урбанизации // Развитие народонаселения и проблемы трудовых ресурсов Средней Азии. –Ташкент: Фан, 1988.
4. Qoraxonov M., Qayumov A. O`zbekistonning demografik va aholi geografiyasi. – Toshkent: 1969.
5. Аҳмедов Э., Файзиев Н. Ўзбекистон аҳолиси. Справочник. –Тошкент: Ўзбекистон, 1967.
6. Муллажонов И. Ўзбекистон аҳолиси. –Тошкент: Ўзбекистон. 1974. –Б.141; Расселение и управление процессом урбанизации. –Ташкент: Узбекистан, 1979.– С.156; Ўша муаллиф. Демографическое развитие Узбекской ССР. –Ташкент, 1983.– С.278.
7. Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолисининг миграцион алоқалари. – Тошкент:Ўзбекистон КПМК бирлашган нашр, 1967. –Б.31.
8. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Медицинская литература им. А.А.Ибн Сина, 1998; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Ташкент: Университет, 2002.
9. Abdurahmonov Q.X. Abduramanov X.X. Demografiya – Т.: "Noshir", 2011 – В.21-22.
10. Мулляджанов И.Р. Демографическое развитие Узбекской ССР. –Ташкент: Узбекистан, 1983 – С-37-38.
11. Sattorov A. Demografiya asoslari fanidan ma'ruzalar matni – Termiz.: В.16.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).